XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-yanvar VII-4-9-7-101-K/25 Pastdarg‘om tumani

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining bildirgisi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 20-dekabrdagi 01/01-33/896-sonli xulosalariga asosan xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, 4-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Pardayev) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagidalar:

xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Pastdarg‘om tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Pastdarg‘om tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov) tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy byudjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XOLMURATOVA
FLORA
UBAYDULLAYEVNA

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-4-9-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Pastdarg‘om tumani mahalliy byudjeti daromadlarning 2024-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

TR	Daromad turlari	Jami
	Jami	**166 248 935**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	49 164 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	2 085 000
3	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	13 774 500
4	Aylanmadan olinadigan soliq	11 550 000
5	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	15 855 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 793 390
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 951 000
8	Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i	4 619 820
9	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	9 102 200
10	Suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	8 739 431
11	Noruda kurilish materallari bo‘yicha yer karidan foydanilganlik uchun solik`	435 000
12	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	162 594
13	Yig‘imlar	3 017 000
14	Davlat mulki ob’ektlarini sotishdan olingan daromadlar tushum	0

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-4-9-7-101-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Pastdarg‘om tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

TR	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**392 215 960**
1	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	**97 511 238**
2	Sog‘liqni saqlash	**149 735 818**
3	Madaniyat bo‘limi va tasarrufidagi tashkilotlar	**10 305 276**
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	**22 485 315**
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	**5 628 567**
6	Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM	**4 315 514**
7	Tuman soliq inspeksiyasi	**6 927 123**
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	**9 736 158**
9	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	**2 613 312**
10	Tuman hokimligi	**82 957 638**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-4-9-7-101-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Pastdarg‘om tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

(ming so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**4 981 692**	**-4 981 692**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-923 454
2	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	0	-3 510 812
3	Madaniyat bo‘limi	346 698	0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	2 472 178	0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	943 899	0
6	Irrigatsiya bo‘limi	0	-164 925
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	136 794	0
8	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	94 241	0
9	Soliq inspeksiyasi	0	-382 501
10	Tuman hokimligi	987 880	0